

I.f.n., dotsent Azamat BOTIROV
Toshkent moliya instituti

IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etish masalalarini o'rganishda turli nazariy fikrlar o'rganilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotining turli tarmoqlarida innovatsiyalarni joriy etish holati, innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar soni, innovatsion strategiyalarning turlari kabilar tahlil qilingan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion strategiya, iqtisodiyot, texnologik innovatsiyalar, proaktiv strategiya, reaktiv strategiya, aktiv strategiya, passiv strategiya.

ISSUES OF IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS IN THE ECONOMY

Abstract: In this article, various theoretical ideas are studied in the study of the issues of introducing innovations in the economy. The state of introducing innovations in various sectors of our country's economy, the number of enterprises that have introduced innovations, and the types of innovative strategies have been analyzed. Based on the analysis, appropriate conclusions and proposals are formed.

Keywords: innovation, innovation strategy, economy, technological innovation, proactive strategy, reactive strategy, active strategy, passive strategy.

Kirish

Iqtisodiyot rivojlanishida korporativ tuzilmalarning faol ishtiroki muhim o'rin tutmoqda. Korxonalarining iqtisodiy faolligini oshirish unda korporativ boshqaruvning samarali yo'lga qo'yilganligiga, shuningdek, korxonalar faoliyatida qanchalik darajada innovatsiyalardan foydalanilayotligiga ham bog'liq. Chunki mazkur jihatlarga e'tibor qaratilmas ekan korxonalarining moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi qoniqarli darajada bo'lmaydi.

Iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida korxonalar tomonidan innovatsion strategiyalarning ishlab chiqilishi va samarali amalga oshirilishi korxonalarining bozorda o'z o'rnini saqlab qolishi, raqobatbardoshlikni oshirishi va yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar yaratilishiga yordam beradi. Korxonalar tomonidan o'z vaqtida faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha yangiliklarning joriy etilmasligi, innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirishga e'tibor qaratilmasligi kelgusida salbiy natijalarga olib keladi. Yuqorida ta'kidlangan jihatlarda korporativ boshqaruvda

korxonaning innovatsion strategiyasini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish istalgan tarmoqdagi korxonalar uchun bozordagi o'rnini mustahkamlash, raqobatbardoshlikni oshirish hamda foydani maksimallashtirish kabilarga erishish uchun zarur. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish hamda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish masalalari xalqaro amaliyotda kompaniyalar faoliyatini tashkil etishda aksariyat kompaniyalar tomonidan e'tibor qaratilmoqda. Korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etish, innovatsion strategiyani shakllantirish kabi masalalarni hal etishda kompaniyada yo'lga qo'yilgan korporativ boshqaruv muhim ahamiyat kasb etadi. Kompaniyaning korporativ boshqaruv organlari innovatsion strategiyani ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy qilishda hal qiluvchi qarorlarni qabul qiladi. Milliy amaliyotimizda korxonalarda innovatsion strategiyalarni shakllantirish hamda ularni amalga oshirishda qator muammolar mavjud. Xususan, mamlakatimiz amaliyotida innovatsion strategiyalarda ta'kidlangan jihatlar korxonalar samaradorligini oshirish, yangiliklarni amaliyotga joriy etish, innovatsiyalarni amalga qo'llash kabilarni to'liqligicha qamrab olmasligi hamda korporativ boshqaruv organlari tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash yetarlicha amalga oshirilmasligi sababli mazkur tadqiqot dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

P.Wright fikricha, "innovatsiya mijozlar qiymatini oshirish va kompaniya uchun boylik yaratish uchun yangi g'oyalardan muvaffaqiyatli foydalanishdir" [1].

R.D.Cooper ta'kidlashicha, "innovatsiya ishlab chiqarish jarayonining dastlabki tuzilishidagi o'zgarish hisoblanadi. Mahsulotlar, texnologiyalar, tashkiliy tuzilmalar, bozorlar, ishlab chiqarish vositalarining innovatsiyalaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu bilimlardan foydalanishni va yangi g'oyalarni amalga qo'llashni o'z ichiga oladi" [2].

J.Kosturiak o'z izlanishlarida "innovatsiya bu g'oyalarni ishlab chiqarish, uzatish va mijozlar tomonidan qadrlanadigan va buning uchun pul to'lashga tayyor bo'lgan amaliy dasturlarga amalga oshirish jarayoni" [3] ekanligini aytib o'tgan.

P.Druckerga ko'ra "innovatsiyalar tadbirkorlarning o'ziga xos qurolidir. Bu sizning biznesingiz yoki xizmatlaringizni farqlash imkoniyatlari kabi o'zgarishlardan foydalanadigan resursdir" [4].

H.Turekova va B.Micieta ham innovatsiya tushunchasiga ta'rif bergan bo'lib, "innovatsiya amaliy g'oyalarni yangi mahsulotlarga (tovar va xizmatlar), jarayonlarga, tizimlarga va ijtimoiy munosabatlarga o'tkazishdir" [5].

M.Miozzo va P.Dewick o'z tadqiqotlarida korporativ boshqaruv va innovatsiyalar o'rtasidagi munosabatni tadqiq qilishgan. Ularning fikricha,

“korporativ boshqaruv va innovatsiya jarayoni o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha tadqiqotlar hozirgi kunga qadar yetarli emas, chunki korporativ boshqaruvning asosiy nazariyalari innovatsiyalar tahlilini tizimli ravishda birlashtirmaydi. Korporativ boshqaruv korporatsiyalarga mablag‘ yo‘naltiruvchi investorlar o‘z investitsiyalaridan daromad olishlarini ta‘minlash uchun qanday harakat qilishlari bilan shug‘ullanadi” [6].

Shuningdek, yana bir guruh olimlar tomonidan korporativ boshqaruv va innovatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq qilingan. Korxonalarda korporativ boshqaruvni tashkil etishda “aksiyadorlarning mulkchilik huquqi va innovatsiyalar o‘rtasida salbiy munosabat yuzaga kelishi mumkin. Mazkur holat ba’zi mamlakatlarda aksiyadorlarning qonuniy himoyasi cheklanganligi natijasida kelib chiqadigan minoritar va yirik aksiyadorlar o‘rtasidagi ziddiyatda ko‘rinadi. Boshqa tomondan, mulkchilik huquqi va innovatsiyalar o‘rtasida ijobiy munosabat ham mavjud bo‘lishi mumkin, chunki yirik aksiyadorlar kompaniyaning bozor qiymati haqida ko‘proq qayg‘uradilar va qiymat yaratishi kutilayotgan loyihalarni ko‘proq rag‘batlantiradilar” [7].

O‘zbekistonlik olimlar ham korxonalar faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish, ularning korporativ boshqaruvida innovatsion strategiyalarni samarali shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, B.Nasimov ta’kidlashicha, “korxonalarini faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish, strategik boshqaruv usullaridan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, korxonalar innovatsion faoliyatining strategik boshqaruvini joriy qilish uchun eng avvalo boshqaruvdagi kadrlarning bilim, ko‘nikma, malakalarini oshirish, markazlashuv darajasini kamaytirish va bosqichlar orasidagi ma’lumot almashish tizimiga yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish, boshqaruvdagi xodimlarni innovatsiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, har bir boshqaruvchini o‘ziga yuklatilgan vazifalarni aniq va to‘liq tushunishi hamda ularni o‘z vaqtida bajarishini ta‘minlash, norasmiy muloqotlar darajasini kamaytirish zarur” [8].

N.Baxriddinov korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy jihatlari e’tibor qaratgan. “Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning oqilona tizimini yaratish orqali moliyaviy resurslarni jamlash va ularni innovatsion jarayonlarning ustuvor sohalariga yo‘naltirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish – yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini loyihalashtirish, tadqiq etish va tashkil qilish, ishlanmalar va tashkiliy jarayonlarni, yangi turdagi texnika va texnologiyalarni, ish va xizmatlarni, shuningdek, boshqaruvning yangi shakl va uslublarini yaratish va joriy etishga yo‘naltirilgan pul mablag‘laridan foydalanishdir. Korxonalar innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalarini ichki (o‘z mablag‘lari) va tashqi manbalarga ajratish

mumkin” [9]. Korxonalarda innovatsion strategiyani samarali amalga oshirishda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish muhim o‘rin egallaydi. Aks holda, yetarlicha moliyaviy ta‘minotsiz strategik maqsadlarga erishish muammoga aylanadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda aytishimiz mumkinki, innovatsiyalar korxonalar faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar qilishga bo‘lgan harakatlar natijasi hisoblanadi. Shuningdek, korxonalarining faoliyatida innovatsiyalar bevosita korporativ boshqaruv bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etish masalalarini o‘rganishda tanlanma kuzatuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Innovatsion strategiyalar umumiy innovatsion maqsadlar va biznesda yangi qiymat yaratish bo‘yicha amalga oshiriladigan harakatlar majmui hisoblanadi. Innovatsiya joriy mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarga kichik o‘zgarishlar yoki qo‘shimchalar kiritishni anglatish bilan birga ilg‘or texnologiya yutuqlari yoki sanoatni o‘zgartiruvchi biznes tushunchalari shaklida ham namoyon bo‘ladi. Innovatsiyalar atrof-muhitga va biznesning o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun yaratilgan jarayonlarni qamrab oladi.

Innovatsion strategiyalarning bir qator turlari mavjud bo‘lib, quyida proaktiv, aktiv, reaktiv va passiv innovatsion strategiyalarni tahlil qilamiz (1-rasm).




1-rasm. Innovatsion strategiyalar turlari [10]

Proaktiv innovatsion strategiyalarga ega bo'lgan kompaniyalar birinchi navbatda kuchli tadqiqot yo'nalishida ustunlikka ega bo'lib, texnologiyalar jihatidan yetakchi bo'lishadi. Ular turli xil manbalardan o'rganishadi va katta risk qilishadi. Proaktiv innovatsion strategiyalarda ko'pincha texnologik innovatsiyalardan foydalaniladi va bu radikal va qo'shimcha proaktiv innovatsion strategiyalarga bo'linadi. Radikal proaktiv innovatsion strategiyalarda mahsulot va xizmatlarning tabiatini o'zgartiradigan yutuqlarga erishish nazarda tutiladi. Qo'shimcha proaktiv innovatsion strategiyalarda mahsulot va xizmatlarning samaradorligini oshirishga olib keladigan texnologik o'zgarishlardan foydalanishga urg'u beriladi. Aktiv innovatsion strategiyalar mavjud texnologiyalar va bozorlarni himoya qilishni o'z ichiga oladi. Bu strategiyada kompaniyalar asosan ichki amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar bilan qo'shimcha innovatsiyalardan foydalanadilar. Reaktiv innovatsion strategiya operatsiyalarga e'tibor qaratadigan va riskka moyilligi past bo'lgan kompaniyalar tomonidan qo'llaniladi. Bunda kompaniyalar mavjud innovatsiyalardan nusxa ko'chirishadi va yangi qo'shimchalardan foydalanadi. Passiv innovatsion strategiyalarga ega kompaniyalar o'z mijozlari mahsulot yoki xizmatlarini o'zgartirishni talab qilguncha kutishadi.

Korxonalarda innovatsion faoliyat quyidagi xususiyatlarga ega:


- korxonalar innovatsion faoliyatni o'zlarida amalga oshirishlari yoki tashqaridan innovatsion faoliyat uchun tovarlar yoki xizmatlarni olishlari mumkin;
- innovatsion faoliyat ko'plab sabablarga ko'ra kuzatuv davrida qoldirilishi yoki to'xtalishi mumkin;
- innovatsion faoliyat kuzatuv davrida innovatsiyani joriy etishda foydalanilmaydigan bilim yoki axborotlarni ham yaratishi mumkin. Bunga asosiy innovatsion maqsadlarga javob bera olmaydigan faoliyatdan olingan bilimlar kiradi.
- korxonalar o'zlarining innovatsion faoliyati natijalaridan, shu jumladan innovatsiyalar, yangi bilimlar va yangi ma'lumotlardan kuzatish davrida o'z manfaati uchun foydalanishi, natijalarni o'z maqsadlari uchun keyinroq muddatga saqlab qolishi yoki boshqasiga o'tkazishi, sotishi yoki natijalarni boshqa firma yoki tashkilotlarga litsenziyalashi mumkin" [11].

Mamlakatimizdagi korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etish korxonalarining iqtisodiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizdagi korxonalarda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, innovatsiyalarni korxonalarda joriy etishga ma'lum darajada e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda innovatsiyalarni sohalarga tatbiq etish jarayonining natijalarini mamlakatimiz miqyosida quyida tahlil qilib o'tamiz.




2-rasm. Iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etgan tarmoqlar ulushi (1.01.2022, foizda) [12]

2-rasmda 2021-yilda iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etgan tarmoqlar tahlil qilingan bo'lib, umumiy holatda 7 ta tarmoqqa bo'lingan. 2021-yilda innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulush ishlab chiqarish sanoatida kuzatilib, 44,2 foizni tashkil etgan. Shuningdek, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2,3 foiz, qurilish sohasi 6,2 foiz, axborot va aloqa sohasi 4,2 foiz, kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat sohalari 1,7 foiz, ta'lim sohasi 1,2 foiz, iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari 40,2 foizni tashkil etishgan. Yuqorida ta'kidlangan sohalar orasidan ta'lim, kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat, axborot va aloqa sohalarida innovatsiyalarni joriy etish umumiy tendensiyaga nisbatan pastligini ijobiy holat sifatida baholab bo'lmaydi. Mazkur sohalarida innovatsiyalarni kuchaytirish kelajak iqtisodiyotning qanchalik rivojlanishini belgilab beradi, deyishimiz mumkin.



3-rasm. 2021-yil yakunida mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari kesimida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni [12]

Mamlakatimizda 2021-yil davomida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni o‘rganadigan bo‘lsak, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jami 1098 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o‘z faoliyatida texnologik innovatsiyalarni qo‘llaganligini ko‘rish mumkin (3-rasm). Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 29 ta, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 25 ta, ishlab chiqarish sanoatida 669 ta, qurilish sohasida 62 ta, axborot va aloqa sohasida 18 ta, ta’lim sohasida 17 ta, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida 4 ta hamda iqtisodiy faoliyatning boshqa turlarida 274 ta texnologik innovatsiyalar amaliyotga joriy etilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, eng kam texnologik innovatsiyalar joriy qilingan soha sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lgan bo‘lsa, eng ko‘p texnologik innovatsiyalar joriy etilgan soha sifatida ishlab chiqarish sanoatini ta’kidlash lozim.



4-rasm. Qurilish sohasida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan korxonalarining yillar kesimida tahlili [12]

4-rasmda qurilish sohasida texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan korxonalarining yillar kesimidagi tahlili keltirilgan. Mazkur ma'lumotlarga ko'ra 2018-yilda 20 ta, 2019-yilda 55 ta, 2020-yilda 57ta hamda 2021-yilda 62 ta qurilish sohasidagi korxonalar texnologik innovatsiyalarni joriy etganligini ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2018-yildan so'ng qurilish sohasida texnologik innovatsiyalarni joriy qilish sezilarli o'sgan. Mazkur sohada innovatsiyalarni yanada kengaytirish sohaning rivojiga hissa qo'shishini ham ta'kidlash lozim.

Xulosa

Iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etish masalalarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, Respublikamiz korxonalarida izga tushmagan hamda tizimsiz innovatsion rivojlanish mavjud. Bu esa kompaniya va xoldinglar boshqaruv tizimida innovatsiyalarni boshqarish vazifalarining hamda tegishli tashkiliy tuzilmalarning samarali tashkil etilmaganligi natijasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, innovatsion faoliyatning yuqori tavakkalchilikka asoslanganligi korxonalarda innovatsion strategiyalarni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa innovatsiyalar sohasidagi davlat siyosatining beqarorligi va takomillashmaganligi bilan bog'liq. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish, innovatsion mahsulotlarga talabni aniqlash, intellektual mulkni himoya qilish asosida innovatsion faoliyat qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Uchinchidan, innovatsion rivojlanish tizimini ishlab chiqish o'rniga xoldinglar, kompaniyalar, korxonalar mulkdorlari, rahbariyati tomonidan bir martalik rekonstruksiya va tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor qo'llanilishi ko'zga tashlanadi. Bu esa mulk egalari va top-menejerlarda zarur malaka va innovatsiyalarni boshqarish uslubiyati bo'yicha ko'nikmalarning yo'qligi natijasi hisoblanadi.

To'rtinchidan, ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi respublikamizning ko'pchilik yirik korxonalari tomonidan ichki bozorga yo'naltirilgan innovatsiyalarga yetarlicha e'tibor bermaslik holatlari ko'p uchraydi. Bunda eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalar o'zini raqobatbardoshlik darajasini saqlab turish uchun innovatsiyalarni majburiy qo'llaydi. Boshqa korxonalarda innovatsiyani qo'llashga bo'lgan motivatsiya yetarli darajada emas.

Beshinchidan, mulkdorlar va menejerlar tomonidan muqobil xarajatlarni yoki boy berilgan foydalarni hisoblash hamda korxonani jadal rivojlantirish bo'yicha amaliy tajribalarning yo'qligi sababli yangi texnologiyalarni joriy qilishdan oldingi qo'llanilayotgan an'anaviy texnologiyalarni ustuvor himoya qilish holatlari ko'p uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. P.Wright. The three levels of innovation// 2010. [online] [cit.2017-01-09]. Available on Internet: <http://www.ceoforum.com.au/article/detail.cfm?cid=6143&t=/Paul-Wright-Invetech/The-three-levels-of-innovation>
2. R. D.Cooper. Winning at new products. // New York: Adison, 1998.
3. J.Košuriak. Inovácie, inovácie, inovácie. // 2009. [online]. [cit-2017-01-09]. Dostupné na internete: <http://www.ipaslovakia.sk/sk/tlac-amedia/aktuality/inovacie-inovacie-inovacie>
4. F.P.Drucker. Inovace a podnikavost: praxe a principy. // Prel. P. Medek. 1.vyd. Praha: Management Press, 1993. -266 s.
5. H.Tureková, B.Mičieta. Inovačný manažment – východiská, overené postupy, odporúčania. // Žilina: EDIS – vydavateľstvo Žilina. 2003. - 169 s.
6. Marcela Miozzo, Paul Dewick. Building competitive advantage: innovation and corporate governance in European construction. // Research Policy,

Volume 31, Issue 6, August 2002, Pages 989-1008.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0048733301001731>

7. Diego Asensio-López, Laura Cabeza-García and Nuria González-Álvarez. Corporate governance and innovation: a theoretical review. // European Journal of Management and Business Economics, Vol. 28 No. 3, 2019. - pp. 266-284. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/EJMBE-05-2018-0056/full/pdf?title=corporate-governance-and-innovation-a-theoretical-review>

8. Насимов Бахтиёр Васиевич. Корхоналар фаолиятини стратегик бошқариш самарадорлиги. // “Иқтисодиёт ва инновациялар технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил. – 6-7 бетлар.

9. Нодирбек Бахриддинов. Корхона инновациялар фаолиятини молиялаштириш масалалари. // 25-06-2018. <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-technology-uz/2868-korkhona-innovatsion-faoliyatini-moliyalashtirish-masalalari>

10. <https://terraskills.com/types-of-innovation-strategies/> - Terraskills Learning Systems Limited kompaniyasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

11. <https://www.oecd-ilibrary.org/docserver/9789264304604-7-en.pdf?expires=1657036709&id=id&accname=guest&checksum=168FEBBC8488366E4619AD00E7D72830>

12. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/23750-qaysi-yo-nalishdagi-korxonava-tashkilotlar-ko-proq-innovatsiyalarni-joriy-etgan> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari